O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SALIYEVA GULRUX BAXODIROVNA

4,6-DIAMINO-2-MERKAPTOPIRIMIDIN ASOSIDA *S*-ALKIL MAHSULOTLARI SINTEZI VA ULARNING BIOLOGIK FAOLLIGI

02.00.03 – Organik kimyo

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SALIYEVA GULRUX BAXODIROVNA

4,6-DIAMINO-2-MERKAPTOPIRIMIDIN ASOSIDA *S*-ALKIL MAHSULOTLARI SINTEZI VA ULARNING BIOLOGIK FAOLLIGI

02.00.03 – Organik kimyo

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘T: 547.853+547.495+547.112+547.1

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mudarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4PhD/K622 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingiliz, rus (rezyume)) veb-sahifa ik-kimyo.nuu.uz manziliga hamda "ZiyoNET" axborot-talim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xoliqov Tursunali Suyunovich** kimyo fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Maxsumov Abdulhamid Gafurovich** kimyo fanlari doktori, professor
	Jo'raqulov Sherzod Niyatqobulovich kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent farmatsevtika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning "05" iyun 2025-yil soat 9^{00} dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy). Tel.: (99871) 227-12-24, faks: (99824) 246-02-24, e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: (100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4-uy. tel.: (+99871) 246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "21" 05 da tarqatildi.

(2025-yil "21" 05 / 13 raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.A.Smanova
Fan doktori ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

N.X.Qutlimurotova
Fan doktori ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash kotibi, k.f.d., professor

A.K.Abdushukurov
Fan doktori ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda pirimidin hosilalari tibbiyotda va farmatsevtikada turli kasalliklarga qarshi dori vositalari, agrosanoatda gerbitsid va fungitsid sifatida keng miqyosida qo‘llaniladi. Ayniqsa, pirimidinning amino hosilalari saratonga qarshi ishlatilayotgan *gemcitabin*, *crizotinib*, *acalabrutinib* va *imatinib* kabi preparatlar ko‘rinishida ishlatiladi. Bu preparatlarning analoglarini yaratish, ularni olish usullarini takomillashtirish va amaliyotga qo‘llash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda DAMP asosida *S*-alkil va *S*-atsetoamid birikmalarini sintez qilishning samarali usullarini ishlab chiqish hamda ushbu reaksiyalar uchun yangi katalizatorlarni tavsiya etish yo‘nalishida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, DAMPning alifatik, aromatik va galogen tutgan geterohalqali birikmalar bilan alkillash reaksiyalari, shuningdek, monoxlorsirka kislota amidlari, metallokompleks birikmalar va nanokatalizatorlar ishtirokida amalga oshiriladigan reaksiyalar muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim va sanoatni rivojlantirishning uzviy bog‘liqligini ta’minlash, shuningdek, mahalliy xomashyo asosida import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish borasida tabiiy va sintetik organik moddalar olish bo‘yicha muhim natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Milliy iqtisodyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish”ga yo‘naltirilgan vazifalari belgilab berilgan[1]. Bu borada aminomerkaptopirimidinning *S*-alkil hosilalari sintezining qulay usullarini topish va ularning tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar bilan tahlil qilish, jarayonlarga ta’sir etuvchi asosiy omillarni va reaksiya qonuniyatlarini aniqlash, olingan birikmalarning fizik-kimyoviy va biologik xossalarini aniqlash hamda tarkibida yangi farmakofor guruhlari bo‘lgan biologik faol moddalarni yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-fevraldagi “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4992-son qarori, 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm fan natijadorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risi”gi PQ-4805-son qarori va 2022-yil 28-yanvardagi Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi”gi PF-60-son farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu disseratatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

[1] O‘zR Prezidentining 2022 yil 6-iyuldagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqiyyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni”

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan hamda texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning ko‘plab rivojlangan davlatlarida 2-merkaptopirimidin asosida *S*-alkil mahsulotlari sintezi va ularning biologik faolligi asosidagi izlanishlar jadal olib borilmoqda. Xususan, xorijlik olimlar M.A.Yusuf amino-2-merkaptopirimidin asosidagi *S*-alkil hosilalarining antibakterial va fungitsidlik xususiyatlarini o‘rgangan. Yangi biologik faol moddalarning sintezi va ularning mikroorganizmlar hamda zamburug‘larga qarshi samaradorligini tahlil qilgan. R.K.M.Mahmoud *S*-alkil 6-amino-2-merkaptopirimidin sintezi va uning antibakterial xususiyatlarini o‘rgangan. Bu moddalarning mikroorganizmlarga (bakteriyalar, viruslar) fungitsidlik ta’sirini tahlil qilgan. Xiu Zhang, A.Tariq, M.George, N.Mikhail, M.Abdullahi, M.Hassan, B.Luislar yangi dori moddalarini yaratish uchun sintez jarayonlarini optimallashtirish, *S*-alkil birikmalarining rak va virusga qarshi ta’sirini, shuningdek, ularning toksikologik tahlillarini o‘rgangan.

Respublikamizda bu yo‘nalishdagi ishlarning rivojiga O‘zbekiston olimlari tomonidan tabiiy va sintetik pirimidinlar bo‘yicha katta hajmdagi tadqiqotlar olib borilgan. Bunga misol qilib, akademik S.Yu.Yunusov va hamkasblari, professorlar X.M.Shahidoyatov, N.D.Abdullayev, B.J.Elmurodov, V.I.Vinogradova, X.U.Xodjaniyozov, X.A.Bozorov va boshqalar o‘simliklardan pirimidin hosilalarini ajratib olib, bu birikmalarning umumiy sintezi va kimyoviy xossalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Adabiyotlar tahlilining ko‘rsatishicha, aminomerkaptopirimidinlarning *S*-alkil mahsulotlar sintezi bo‘yicha keng qamrovli tajriba natijalari bo‘lishiga qaramasdan, ularning *S*-allil (propargil), *S*-alkilatsetoefir hosilalari sintezi o‘rganilmagan. Shu sababli, merkaptopirimidinning alkil galogenidlar bilan reaksiyalarini o‘rganish va sintez qilingan birikmalarning biologik faolligini aniqlash alohida ilmiy qiziqish kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetining OT-F-7-52 (OT-F-7-50, OT-F-7-56, OT-F-7-58) “Turli tabiatli organik hamda noorganik moddalarning ta’sirlashish qonuniyatlari va reaksion qobiliyati hamda berilgan kompleks xossali yangi birikmalar olish” (2017-2020-yy.) va AM-FZ-2019081452 “Etilen asosida siklogeksan sintezi texnologiyasini ishlab chiqish” (2020-2022-yy.) mavzularidagi ilmiy tadqiqot loyihasining fundamental loyihalari doirasida bajarilgan. `

Tadqiqotning maqsadi. 4,6-Diamino-2-merkaptopirimidin asosida *S*-alkil mahsulotlari sintezi va ularning biologik faolligini tadqiq qilishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

4,6-diamino-2-merkaptopirimidinni (DAMP) turli sharoitlarda yangi *S*-alkil hosilalarini sintez qilish;

DAMPni to‘yinmagan allil (propargil) bromid bilan proton va aproton erituvchilar ishtirokida *S*-allillash (propargillash) reaksiyalarini olib borish;

DAMPni almashingan benzil galogenidlar bilan *S*-benzillash reaksiyalarida reaksion qobiliyatini aniqlash;

Alkil galogenidlarning DAMP bilan *S*-alkillash reaksiyalaridagi nisbiy faollik qatorini aniqlashda, reaksiya borishiga harorat, reaksiya davomiyligi, erituvchilar tabiati, dastlabki moddalar nisbati ta’sirini o‘rganish;

DAMPning yangi tioalkilatsetoefir hosilalarini muqobil usulda sintez qilish;

sintez qilingan moddalarning tuzilishini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida isbotlash;

sintez qilingan birikmalarning biologik faolligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti 4,6-diamino-2-merkaptopirimidin (DAMP), DAMPning *S*-natriyli tuzi, *n*-butil-, *n*-pentil-, *n*-geksil-, *n*-geptil-, *n*-nonil-, allil-, propargil-, benzil-, 4-metilbenzil-, 2,4-dimetilbenzil-, 2,5-dimetilbenzil-, 2,6-dimetilbenzil-, 3-xlorobenzil-, 4-xlorobenzil-, 2,4-dixlorobenzil-, 2,6-diftorobenzil-alkiltio hosilalari. DAMPning metil-, etil-, allil-, propargil-, benzil-, 2,4-dimetilbenzil-, 2,5-dimetilbenzil-2-tioalkilatsetoefir hosilalari tadqiqot obyektlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. DAMPning oltingugurt atomida nukleofil almashinish reaksiyalari, *S*-alkil, *S*-to‘yinmagan alkil, S-benzil va *S*-alkilatsetoefir reaksiya mahsulotlarining fizik-kimyoviy hamda biologik xossalarini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Zamonaviy organik kimyo usullari, spektrometrik (Yuqori samarali xromotomass (YuSMS), suyuqlik xromotomas (SXMS)), spektroskopik (YaMR, IQ, rentgen tuzilish tahlili (RTT), yupqa qatlam xromatografiya (YuQX) va biologik tadqiqot usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor DAMP ning *n*-geptil, *n*-nonil, allil-, propargil-, 4-metilbenzil-, 2,4-dimetilbenzil-, 2,5-dimetilbenzil-, 2,6-dimetilbenzil-, 3-xlorobenzil-, 4-xlorobenzil-, 2,4-dixlorobenzil-, 2,6-diftorobenzil- hosilalari sintez qilingan;

Ilk bor “*one pot”* sintez usulida DAMPning allil-, propargil-, benzil-, 2,4-dimetilbenzil-, 2,5-dimetilbenzil- radikal tutgan tioalkilatsetoefir birikmalari tadqiq etilgan;

S-alkil hosilalarida zanjir uzunligi ortishi bilan reaksiya unumi kamaygan, harorat 20-70 ^{o}C gacha ortganda reaksiya unumi ortib borib, *n*-butil, *n*-pentil, *n*-geksil hosilalar uchun harorat 50 ^{o}C da, *n*-geptil, *n*-nonil hosilalar uchun esa 70 ^{o}C da monomahsulot hosil bo‘lishi aniqlangan;

DAMPning allil-, propargil- hosilalari sintezi proton va aproton erituvchilarda olib borilganda reaksiya unumi aproton erituvchilarda yuqori bo‘lgan. DAMPning natriyli tuzi bilan allil, propargil bromidlar nisbati 1:2 bo‘lganda reaksiya tezligi va reaksiya unumi yuqoriligi (90 %) isbotlangan;

DAMP bilan elektronodonor o‘rinbosarlar saqlagan dimetilalmashgan benzil hosilalarning nukleofil almashinish reaksiyalariga kirishish qobiliyati 2,4-

dimetilbenzil xlorid < 2,5-dimetilbenzil xlorid < 2,6-dimetilbenzil xlorid qatorda kamayib borishi aniqlangan;

DAMP asosida olingan *S*-alkil hosilalarning tuzilishi mass spektrometrik, YaMR, IQ-spektroskopik va RTT usullari yordamida isbotlangan;

Etalon “sisplatin” (11,07 μM), dori vositasiga nisbatan DAMP ning 2,5-dimetilbenzil hosilasi (4,42 μM) bachadon bo‘yni saraton hujayralariga (Hela) 2.5 marta ko‘proq foallik ko‘rsatib, tirik hujayralarning 95,8 %ni nobud qilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

DAMP asosida *S*-alkillash reaksiyalarning maqbul sintez usullari topilgan;

ilk bor DAMPning allil, propargil bromidlar bilan alkillash reaksiyalarida mono mahsulot olish usullari tavsiya etilgan;

birinchi marta DAMPning S-alkilatsetoefir hosilalari sintezining maqbul usullari ishlab chiqilgan;

ilk bor 2-{(2,4-dimetilbenzil)tio}pirimidin-4,6-diaminning fazoviy tuzilishlari hamda barcha kristallografik kattaliklari isbotlangan va Xalqaro Kembrij kristallografik ma’lumotlar bazasiga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qo‘llanilgan xromatografik, fizik-kimyoviy usullar IQ-, ^{1}H, ^{13}C, HMBC, HSQC, COSY, YAMR-spektroskopiya, YuSMS, SXMS, YuSSX, YuQX, rentgen tuzilish tahlili (RTT) va biologik usullar ma’lumotlari asosida tasdiqlangan, shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi qator xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, DAMPni selektiv *S*-alkillash ishqoriy sharoitda alkil galogenidlar, to‘yinmagan alkil galogenidlar, almashingan benzil galogenidlar va monoxlorsirka kislota bilan *S*-alkil, *S*-almashingan benzil, *S*-alkilatsetoefir hosilalari sintez qilingan, turli sharoitlarda nukleofil almashinish reaksiyalari bo‘yicha tizimli tadqiqotlar o‘tkazilgan, reaksiyalar yo‘nalishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, sintez qilingan birikmalar orasida yuqori sitotoksik faollikni namoyon qiluvchi *S*-alkil birikmalar borligi aniqlangan va ularni maqbul sintez usullari ishlab chiqilgan. Umumiy 23 ta modda sintez qilingan shulardan 17 tasi yangi modda, sintez qilingan moddalar orasida biologik foal moddalar borligi isbotlangan. Sintez qilingan 2-{(2,4-dimetilbenzil)tio}pirimidin-4,6-diaminning rentgen tuzilish tahlili usullari yordamida yangi ekanligi va kristall tuzilishi isbotlanganligi hamda xalqaro Kembridj Markaziy kristallografik ma’lumotlar bazasiga kiritilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. DAMPning alkil galogenidlar bilan reaksiyalari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

2-{(2,4-dimetilbenzil)tio}pirimidin-4,6-diaminning rentgen tuzilish tahlili (RTT) natijalari Kembridj kristallografik markazi ma’lumotlar bazasiga kiritilgan (Cambridge Crystallographic Data Centre ning 2025-yil 25-martdagi 2431935-

sonli ma’lumotnoma). Natijada, almashingan tiopirimidin hosilalari tarkibiga kiruvchi yangi moddalarning tuzilishini aniqlash imkonini bergan;

Toshkent farmatsevtika instituti “Innovatsion farmatsevtik birikmalar” ilmiy laboratoriyasida bajarilgan “Akvaporin kanallarini biologik faol birikmalar yordamida bloklash orqali saraton hujayralari proliferatsiyasini cheklash: molekulyar darajadagi eskperimental tadqiqotlar” (2022-2024-yy.) mavzusida bajarilgan fundamental loyihada foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2025-yil 14-mart № 03/17-668-son ma’lumotnomasi). Natijada, 4,6-diamino-2-merkaptopirimidin asosida sintez qilingan *S*-alkil birikmalar jigar saraton (HepG2) hujayrasini ingibirlash faolligini namoyon qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha 4 ta, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan hamda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ishlar nashr qilinib, ulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan 2 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil qiladi[1].

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati haqida ma’lumot berilgan, maqsad va vazifalari keltirib o‘tilgan, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mos kelishi ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga tatbiq qilinishi ochib berilgan, shuningdek, chop etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Almashingan pirimidinlar sintezi, xossalari va qo‘llanilish sohalari**” deb nomlangan **birinchi bobida** adabiyotlar tahlili keltirilgan bo‘lib, unda bir qator pirimidin hosilalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlil qilingan, ularning sintezi, modifikatsiyasi, biologik faolligiga doir adabiyotlarning hozirgi holati tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning “**4,6-Diamino-2-merkaptopirimidin asosida *S*-alkil hosilalari sintezi (Olingan natijalarning muhokamasi)**” deb nomlangan **ikkinchi bobida** DAMP asosida turli sharoitlarda *S*-alkillash, *S*-allillash(propargillash), *S*-benzillash va *S*-alkilatsetoefir olish reaksiyalari amalga oshirilgan. Reaksiya natijasida hosil bo‘lgan birikmalarning kimyoviy tuzilishini tahlili xromotografiya, spektroskopiya (IQ, ^{1}H, ^{13}C HSQC va HMBC YaMR), hamda yuqori samarali mass spektrometriya va RTT natijalari keltirilgan.

---

[1] *Muallif O‘zR FA Bioorganik kimyo instituti professori A.D.Matchanovga dissertatsiya ishini bajarishda ko‘rsatgan yordamlari uchun o‘zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi.*

DAMPning alkil galogenidlar bilan reaksiyada, unumga haroratning ta’siri o‘rganildi. Dastlabki reagentlarning mol nisbatlari 1:1,2 bo‘lib, birinchi bosqichda erituvchi sifatida MeOH, ikkinchi bosqichda esa DMFA ishlatilib, reaksiya 16 soat davomida olib borildi. Olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.



1 **2** **3-7**

Bu yerda R=C_4H_9 (**3**); C_5H_{11} (**4**); C_6H_{13} (**5**); C_7H_{15} (**6**); C_9H_{19} (**7**).

1-jadval.

4,6-Diamino-2-merkaptopirimidinni alkil galogenidlar bilan reaksiyalari unumiga harorat va reagentlar nisbati (DAMP:NaOH:alkil galogenid (1:2,5:1,2) ta’siri

№	Reagentlar	Mahsulot unumi (%) va harorat					Erituvchi
		20 °C	**40° C**	**50° C**	**60°C**	**70°C**	DMFA
3	DAMP, NaOH, *n*-Butil bromid	60	66	70	-		DMFA
4	DAMP, NaOH, *n*-pentil bromid	58	62	68	-	-	DMFA
5	DAMP, NaOH, *n*-geksil bromid	55	59	64	-	-	DMFA
6	DAMP, NaOH, *n*-geptil bromid	52	57	62	68	74	DMFA
7	DAMP, NaOH, *n*-nonil bromid	40	45	51	63	71	DMFA

Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, 20 °C da alkil zanjiri uzayishi bilan reaksiyaga kirish faolligi quyidagi qatorda kamayib boradi.

***n*-C_4H_9-< *n*-C_5H_{11}-< *n*-C_6H_{13}-< *n*-C_7H_{15}-< *n*-C_9H_{19}-**

Buning sababini quyidagicha izohlash mumkin: Alkil guruhlari kuchli elektronoakseptor bo‘lmasa ham zanjir uzunligi ortishi bilan kichik induktiv ta’sir farqi yuzaga keladi, bu esa galogen bilan bog‘langan uglerodining elektrofilligini biroz pasaytiradi. Biroq bu ta’sir fazoviy to‘siqlarga nisbatan kamroq seziladi. Zanjir uzunligi oshgani sari masalan: *n*-C_4H_9-< *n*-C_5H_{11}-< *n*-C_6H_{13}-< *n*-C_7H_{15}-< *n*-C_9H_{19}- elektrofil uglerod atrofidagi hajmiy to‘siqlar kuchayadi. Bu nukleofilning uglerodga hujumini qiyinlashtiradi va reaksiyani sekinlashtiradi. Uzunroq alkil zanjirli birikmalar gidrofob xususiyatga ega bo‘lib, ular qutbli erituvchilarda (masalan, DMFA yoki DMSO) yomon eriydi.

Natijalardan ko‘rinadiki, DAMP alkil galogenidlar bilan 1:1,2 mol nisbatda metanol va DMFA erituvchisida qizdirilganda SH guruhi hisobiga *S*-alkil mahsulotlari – tioefirlar hosil bo‘ldi.

Sintez qilingan birikmalarning individualligi yupqa qatlam xromatografiyasi (YuQX) usuli yordamida aniqlangan. YuQX uchun metanol:xloroform (1:5) sistemasi tanlandi va sintez qilingan birikmalarning R_f qiymatlari aniqlangan.

Monoalkillash jarayonida uchta mahsulot hosil bo‘lishi mumkin (**6**, **8** va **9**,).



6



8



9

Shuning uchun mahsulotlar (**3-7**) tuzilishi keng qamrovli spektroskopik tahlillar yordamida aniqlik bilan o‘rganildi.

2-jadval.

4,6-Diamino-2-merkaptopirimidin bilan alkilgalogenidlarning reaksiyasidan olingan mahsulotlarning unumi va fizik-kimyoviy kattaliklari

Olingan mahsulot	Reagentlarning mol nisbati	Mahsulot unumi %	R_f qiymati	T_{suyuq} °C
3	1:1,2	70	0,62	91-92
4	1:1,2	68	0,62	92-93
5	1:1,2	64	0,62	80-81
6	1:1,2	**74**	0,62	-
7	1:1,2	71	0,62	-

6-Birikmaning ^{1}H YaMR spektrida geptil zanjirining terminal metil guruhi (H7') uchun δ 0.87 m.u. da triplet signal kuzatildi. n-Geptil guruhiga mansub o‘n to‘rtta metilen protonidan o‘ntasi (H2'–H6') δ 1.22–1.32, 1.36–1.41 va 1.60–1.65 m.u. oraliqda signallar berdi. Oltingugurt atomiga yaqin joylashgan ikkita metilen protoni (H1') esa δ 3.01 m.u. da triplet shaklida ko‘rindi. δ 5.26 m.u. dagi singlet signal esa pirimidin halqasidagi aromatik proton (H5) ga mos keldi.



6



6

6-Birikmaning ^{1}H va ^{13}C YaMR spektr tahlili.

^{13}C YaMR spektrida terminal metil uglerod C7' δ 13.2 m.u. da kuzatildi, metilen uglerodlari C2'–C6' esa δ 22.4–29.9 m.u. oraliqda signal berdi, bu alifatik guruhga mos keldi. Oltingugurt atomiga tutash joylashgan C1' uglerodining kimyoviy siljishi δ 31.7 m.u. da signal berdi, bu esa *S*-alkillanishga xos bo‘lgan qiymatdir. Agar *N*-alkillangan mahsulot hosil bo‘lgan bo‘lsa, adabiyotlarga ko‘ra N-CH_2 signali taxminan δ 43 m.u. da signal bo‘lishi kerak edi. Aromatik uglerodlar δ 79.2 m.u. (C5), δ 163.8 m.u. (C4, C6), δ 170.0 m.u. da (C2) kimyoviy siljishlari aniqlandi.



1-rasm. 6-Birikmaning HMBC YaMR spektri tahlili.

HMBC tahlili orqali alkillanish joyini aniq belgilashga e'tibor qaratildi. HMBC diagrammasini sinchkovlik bilan tahlil qilish natijasida muhim o'zaro ta'sir signallari aniqlangan bo'lib, aynan H1' va C2 o'rtasidagi eng muhim ^{4}JCH o'zaro ta'siri kuzatildi. Bu esa alkil guruhining oltingugurt atomi bilan bog'langanligini tasdiqlab, **6** birikmaning tuzilishiga mos kelishini ko'rsatdi. Yuqorida keltirilgan spektroskopik tahlillar natijasida **6** moddaning tuzilishi ishonchli tasdiqlandi. HMBC spektrida H1' va C2 o'rtasida muhim korrelyatsiya kuzatildi (**6**-birikma). Aksincha, hosil bo'lishi mumkin bo'lgan *N*-alkillangan mahsulotlar (**8** va **9**) hosil bo'lishi uchun HMBC spektrida H1' va C4 o'rtasida korrelyatsiya bo'lishi kerak edi. Biroq HMBC analizida bunday signal aniqlanmadi. Garchi organik birikmalarning YaMR orqali tuzilishini aniqlashda kuzatilmaslik ijobiy dalil bo'la olmasligini bilsak ham, biz ushbu bilvosita faktni yaxshiroq taxmin qilishimiz uchun ishlatdik (1-rasm).

Ushbu selektivlik "qattiq va yumshoq kislota va asos" (YuQKA) nazaryasi bo'yicha tushuntirish mumkin. Unga ko'ra, yumshoq asoslar (masalan, oltingugurt anionlari) yumshoq kislotalar (masalan, alkil galogenidlar) bilan reaksiyaga kirishishga moyildir.

4,6-Diamino-2-merkaptopirimidinning allil va propargil bromidlar bilan alkillash reaksiyasi

DAMP va to'yinmagan alkil galogenidlar asosida *S*-alkil hosilalar sintezi o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, DAMPning to'yinmagan alkil galogenidlar bilan reaksiyalari aproton erituvchilarda ishqoriy sharoitda olib borilganda reaksiya

tezligi va hosil bo‘layotgan mahsulotlarning unumdorligi sezilarli darajada oshishi kuzatildi.



Bu yerda: R = allil (**10**), propargil (**11**).

Ushbu jarayonni o‘rganish maqsadida DAMP va to‘yinmagan alkil bromidlar o‘rtasida *S*-alkillash reaksiyalari amalga oshirildi. Dastlab, DAMP va NaOH metanolda eritildi, magnitli aralashtirgich yordamida 1 soat davomida aralashtirildi. Ushbu bosqichda DAMP ning Na li tuzi hosil bo‘ldi, so‘ngra metanol rotorli bug‘latgich yordamida butunlay haydab olindi.

3-jadval.

4,6-Diamino-2-merkaptopirimidinning allil, propargil bromidlar bilan reaksiyalariga erituvchi, reaksiya davomiyligi va dastlabki reagentlarning nisbati reaksiya unumiga ta’siri

№	Erituvchi	nisbat	vaqt	unum	nisbat	vaqt	unum	nisbat	vaqt	unum
10	MeOH	1:1	2	58	1:1,2	1,5	59	1:2	1	62
	DMFA	1:1	2	86	1:1,2	1,5	87	1:2	1	89
11	MeOH	1:1	2	56	1:1,2	1,5	59	1:2	1	62
	DMFA	1:1	2	85	1:1,2	1,5	87	1:2	1	90

Keyingi bosqichda hosil bo‘lgan DAMP ning Na li tuzi DMFAda eritildi. So‘ngra, allil (propargil) bromid tomchilatib qo‘shilib, aralashma magnitli aralashtirgichda 1-2 soat davomida reaksiya olib borildi. Reaksiya natijasida *S*-alkil hosilalarining hosil bo‘lishi qayd etildi.

DAMP ning to‘yinmagan allil (propargil) bromidlar bilan reaksiyalari uchun eng qulay sharoit ishqoriy muhit bo‘lib, DMFA kabi aproton erituvchilardan foydalanish orqali reaksiya unumini oshirish mumkin.

3-jadvalda DAMP ning Na li tuzi bilan to‘yinmagan alkil bromidlar o‘rtasidagi reaksiyalarga erituvchi, reaksiya davomiyligi va dastlabki reagentlarning nisbati reaksiya unumiga ta’sirini o‘rganish natijalari ko‘rsatilgan. Reaksiya DAMP ning Na li tuzi va to‘yinmagan alkil bromidlari o‘rtasida turli mol nisbatlarida 1:1, 1:1,2 va 1:2 hamda turli vaqt oralig‘ida 1 soat, 1,5 soat va 2 soat davomida olib borildi. Natijada, mol nisbati oshgan sari reaksiyaning unumdorligi ham oshadi. Reagentlar nisbati 1:2 bo‘lganda, kam vaqt sarflanib eng yuqori unumga erishildi.

4-jadval.

4,6-Diamino-2-merkaptopirimidin va allil va propargil bromidlar bilan reaksiyasidan olingan mahsulotlarning fizik-kimyoviy kattaliklari

(T.r.)	Mahsulot unumi %	T_S, °C	R_f, MeOH:$CHCl_3$ 1:5	Mahsulotning rangi
10	89	220,5-220,6	0,62	Jigar rangli kristal
11	90	119,9-120	0,61	Jigar rangli kristal

Reaksiya unumiga erituvchining ta’siri ham o‘rganildi, bunda metanol va DMFA ishlatildi: Metanol, qutubli proton erituvchi sifatida, o‘rtacha unum ko‘rsatdi. Ion oraliq mahsulotlar yoki o‘tish holatini barqarorlashtirish qobiliyati bu reaksiyaga yordam berdi, lekin unumni maksimal darajada oshirmadi. DMFA, qutbli aproton erituvchi sifatida, metanoldan ancha yuqori unum berdi. DMFAning qutbli tabiati dastlabki reagentlarni yaxshi eritdi va DAMPning nukleofilligini oshirib, reaksiyaning tez va yuqori unumda borishini ta’minladi.



2-rasm. 10-Birikmaning COSY YaMR spektri tahlili.

10 birikmaning strukturasini aniqlashda COSY spektri asosiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu spektr protonlarning o‘zaro bog‘lanishini aniqlashga va allil zanjiri tuzilishini tasdiqlashga imkon beradi.

COSY spektrida S-CH_2 guruhiga tegishli proton signali δ 3.71 m.u., allil guruhidagi CH proton signali esa δ 5.92 m.u.da joylashgan. Ushbu signallar o‘zaro

kross-cho‘qqi (cross-peak) hosil qilgani S-CH_2 guruhining allil zanjiriga bevosita bog‘langanligini tasdiqlaydi. Terminal vinil protonlar (CH_2) va markaziy allil proton (CH) o‘rtasida δ 5.93 m.u. hamda δ 5.21 m.u. da kuzatilgan kross-cho‘qqilar, allil zanjiridagi vinil va allil bog‘lanishlarning mavjudligini tasdiqladi. Kuzatilgan o‘zaro bog‘lanishlar (kross-cho‘qqilar) allil guruhining zanjirli strukturasini isbotladi va vinil bog‘lanishlarning o‘zaro ta’sir (splitting) xususiyatlarini ko‘rsatdi. Bu allil guruhining reaksiya natijasida oltingugurt atomi orqali pirimidin halqasiga bog‘langanligini tasdiqlaydi (2-rasm).

10 Birikmaning strukturasi HMBC usuli yordamida tasdiqlandi. Ushbu tahlil allil guruhi va pirimidin halqasi o‘rtasidagi asosiy uzoq masofadagi o‘zaro bog‘lanishlarni aniqlashga hamda molekula strukturasining bog‘lanishini isbotlashga yordam beradi. Proton YaMR spektrida 3,70 m.u. sohada kuzatilgan dublet signal, S-CH_2 metilen protonlariga tegishli bo‘lib, pirimidin halqasidagi C-2 atomi bilan kuchli uzoq masofadagi korrelatsiyani ko‘rsatdi. Bu kuzatuv allil guruhining oltingugurt (S) atomiga metilen orqali bog‘langanligini tasdiqlaydi.



3-rasm. 10-Birikmaning HMBC YaMR spektri tahlili.

Allil guruhidagi oxirgi vinil protonlari (CH=CH_2) metilen uglerod (S-CH_2) va markaziy allil uglerod bilan korrelyatsiya berdi. Allil guruhidagi terminal vinil protonlar o‘zining yaqin metilen uglerodi va oltingugurtga bog‘langan uglerod bilan kutilgan uzoq masofadagi korrelyatsiyalarni berdi. Bu allil guruhining oltingugurt atomiga bog‘lanishini tasdiqlaydi. NH_2 guruhiga tegishli protonlar (4- va 6-holatlarda) pirimidin halqasidagi tegishli uglerodlar bilan uzoq masofadagi

korrelatsiyalarni ko‘rsatdi. Bu pirimidin halqasining o‘rinbosar guruhlar joylashuvini tasdiqlaydi.

HMBC ma’lumotlari, ayniqsa, 3.70 m.u. sohadagi S-CH_2 dublet va C-2 o‘rtasidagi kuchli korrelyatsiya, DAMP allil bromid bilan reaksiyasi natijasida S-alkillanish muvaffaqiyatli amalga oshganligini isbotlaydi. Ushbu natijalar reaksiyaning azot (N) alkillanishi emas, balki oltingugurt (S) alkillanishi orqali amalga oshganligini ko‘rsatadi (3-rasm).

DAMPning to‘yinmagan alkil galogenidlar bilan olib borilgan reaksiya mahsulotlarini tuzilishi IQ, 1D, 2D YaMR, SXMS va YuSMS spektroskopik usulida tahlil qilindi.

4,6-Diamino-2-merkaptopirimidinning almashingan benzil galogenidlar bilan reaksiyalari

DAMPning almashingan benzil galogenidlar bilan reaksiyalari reagentlarning 1:1, 1:1,2, 1:1,5 nisbatlarida, xona haroratida, ishqor yordamida DMFA erituvchida ta’sirlanishidan quyidagi reaksiya tenglamasi bo‘yicha mahsulotlar hosil bo‘ldi.



1 **12-20**

Bu yerda, R-Benzil (**12**), 4-metilbenzil (**13**), 2,4-dimetilbenzil (**14**), 2,5-dimetilbenzil (**15**), 2,6-dimetilbenzil (**16**), 3-xlorobenzil (**17**), 4-xlorobenzil (**18**), 2,4-dixlorobenzil (**19**), 2,6-diftorobenzil (**20**).

DAMP tarkibida ikkita asosiy nukleofil markaz mavjud: Yuqoridagi tajribalar asosida DAMPning benzil galogenidlar bilan xona haroratida qutbli aproton erituvchi ishtirokida ta’sirlanishidan *S*-benzil hosilalar yuqori unumlar bilan olindi. Olingan natijalar 5-jadvalda keltirilgan.

DAMP ning benzil galogenidlar bilan 1:1,2, mol nisbatda xona haroratida erituvchi ishtirokida ta’sirlashuvi natijasida YuQX da DAMPning butunlay sarf bo‘lganligi kuzatildi, tiol guruhi hisobiga *S*-benzil mahsulotlar hosil bo‘ldi.

DAMPning almashingan benzil galogenidlar bilan 1:1,2 mol nisbatida xona haroratida qutibli aproton organik erituvchi ishtirokidagi reaksiyasidan **12** (85 %), **13** (85 %), **14** (90 %), **15** (87 %), **16** (82 %), **17** (66 %), **18** (51 %) hosilalar hosil bo‘ldi.

Ushbu tadqiqotda *S*-alkillangan 2-merkapto-4,6-diaminopirimidin hosilalarining hosil bo‘lish unumi tahlil qilindi. Unumning yuqori yoki past bo‘lishi benzil halqadagi o‘rinbosarlarning elektronodonor yoki elektronoakseptor xususiyatlariga bog‘liq ekanligi kuzatildi.

Jadval natijalaridan ko‘rinadiki, DAMP ning benzil galogenidlar bilan 1:1,2, mol nisbatda xona haroratida erituvchi ishtirokida ta’sirlashuvi natijasida YuQX da

DAMPning butunlay sarf bo'lganligi kuzatildi. Tiol guruhi hisobiga *S*-benzil mahsulotlar hosil bo'ldi.

5-jadval.

4,6-Diamino-2-merkaptopirimidinning benzil galogenidlar bilan reaksiyalariga dastlabki reagentlarning nisbati reaksiya unumiga ta'siri (DAMP:Benzil galogenid:K_2CO_3/TEA)

№	Benzilgalogenidlar K_2CO_3/TEA	1:1:2 Unum %	1:1,2:2 Unum %	1:1,5:2 Unum %	Reaksiya vaqti (s)
14	2,4-dimetilbenzil xlorid	81	**90**	**90**	2
15	2,5-dimetilbenzil xlorid	78	87	87	2
16	2,6-dimetilbenzil xlorid	70	78	82	2

5-jadvalda keltirilgan kattaliklardan ma'lum bo'ladiki, DAMPning almashingan benzil galogenidlar bilan 1:1,2 mol nisbatida xona haroratida qutbli aproton organik erituvchi ishtirokidagi reaksiyasidan *S*-benzil hosilalar hosil bo'ladi.



14 (90%)



15 (87%)



16 (82%)

2,4-Dimetilbenzil molekulasida 2- va 4- holatlardagi metil guruhlari o'ziga nisbatan *orto*- hamda *para*-holatdagi C atomining elektron zichligini oshiradi. 2- va 4- holatdagi metil guruhining kelishilgan oriyentatsiyasi hisobiga benzil guruhidagi uglerod atomining elektron yetishmovchiligi keskin kamayadi hamda 2,4-dialmashingan benzil karbokationining barqarorligi eng yuqori bo'ladi. Shu sababli reaksiya S_N1 mexanizmi bo'yicha tez boradi, chunki reaksiya o'tish holati aynan barqaror karbokationning hosil bo'lishiga bog'liq. Barqaror karbokation qanchalik tez hosil bo'lsa va barqaror bo'lsa, reaksiya shunchalik tez boradi.

2,5-Dimetilbenzil molekulasida 2-holatdagi metil guruhi benzil guruhiga nisbatan kelishilgan holatda, ya'ni benzil kationining barqarorligi oshishiga xizmat qilsa, 5-holatdagi metil guruhi benzil guruhiga nisbatan *meta*- holatda joylashgan va uning elektronodonor sifatida ta'siri deyarli sezilmaydi. Shu sababli benzil guruhining barqarorligining oshishiga faqat bitta metil guruhi ta'sir ko'rsatadi xolos. Shu sababli, 2,4-dimetilbenzilgalogenidga nisbatan 2,5-dimetilbenzilgalogenid bilan boradigan reaksiya unumdorligi biroz pasaygan.

2,6-Dimetilbenzil galogenidda har ikkala metil guruhi ham elektronodonor sifatida kelishilgan holatda joylashgan bo'lsada, ularning har ikkalasining ham *orto*- holatda joylashuvi katta hajmli nukleofil reagent DAMPning oltingugurt nukleofilining hujumini qiyinlashtiradi. Natijada molekulaning koplanarligi (bir tekislikda yotishi) buziladi va har ikkala alkil guruhining benzil guruhiga ko'rsatadigan musbat induksion ta'siri deyarli yo'qoladi. Shu sababli reaksiya S_N2 mexanizmi bo'yicha boradi hamda reaksiya unumi 2,4- va 2,5-dialmashingan

benzilgalogenidlar bilan boradigan reaksiyalarga nisbatan past bo‘lishiga olib keldi.

Sintez qilingan birikmalarning individualligi YuQX usuli yordamida aniqlangan. Buning uchun metanol:xloroform (1:5) sistemasi tanlandi va sintez qilingan birikmalarning R_f qiymatlari aniqlangan. Sintez qilingan *S*-benzil hosilalarning tuzilishi IQ, YuSMS, YuSSX, ^{1}H, ^{13}C, HMBC YaMR spektroskopiya, rentgen tuzilish tahlili (4-rasm) usullari bilan tasdiqlangan.



4-rasm. 14-Birikmaning kristal tuzilishi va ^{1}H YaMR spektr tahlili.

4,6-Diamino-2-merkaptopirimidinning *S*-alkil atsetoefir hosilalarini o‘rganish

S-Alkillangan atsetoefir hosilalarini sintez qilishda DAMPning yuqori nukleofil xususiyatlari hisobga olindi. Reaksiya monoxlorsirka kislotasining metil va etil efirlari bilan DMFA erituvchisida 50 °C haroratda ikki soat davomida olib borildi. Metil hosila 75 % unum bilan olindi, etil hosila esa 67 % unum bilan sintez qilindi. Ushbu farq fazoviy to‘siq va elektron ta’sirlar bilan izohlanadi. Metil guruhi kichikroq bo‘lgani uchun elektrofil markaz (xlormonosirka kislota efiri) bilan reaksiyaga kirishishi osonlashadi. Etil guruhi esa biroz kattaroq fazoviy ta’sirga ega bo‘lib, tioanionning elektrofilga hujum qilish qobiliyatini pasaytiradi, natijada unum nisbatan kamayadi. Bundan tashqari, DMFA erituvchisi qutbli aproton erituvchi, nukleofil S^- ionining reaktivligini oshirdi va *S*-alkillanishni tezlashtirdi.



2 **21-22**

R = Me, Et

Shuningdek, 4,6-diamino-2-merkapto-pirimidin, monoxlorsirka kislotaning natriyli tuzi va alkil galogenidlar bilan bir bosqichli (*one-pot*) reaksiyasi amalga oshirildi. Natijada, *S*-alkillangan atsetoefir hosilalari sintez qilindi.



2 **22-27**

R = allil (**23**), propargil (**24**), benzil (**25**) 2,4-dimetilbenzil (**26**), 2,5-dimetilbenzil (**27**); X = Br, Cl.

